

INTELLEKT VA KREATIVLIK

Qarshiboyeva Dilfuza Burliyevna

Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Babayeva Nodira Xolbek qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqola psixologiyani o'r ganuvchilar uchun intellekt va kreativlik orasidagi farqlarni aniq dalillar bilan izohlab beradi. Bu esa intellekt va kreativlik haqida ko'proq ma'lumotlarga ega bo'lishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: Intellekt, kreativlik, Charliz Spirman, kristallangan intellekt, suyuq intellekt, Ijodiy intellekt, amaliy intellekt, analistik intellekt, Gardner nazariyasi, Intellegentlik.

Intellekt aynan nima? Tadqiqotchilarning intellekt tushunchasini ifodalash usuli psixologiya paydo bo'lgandan beri ko'p marta o'zgartirildi. Britaniyalik psixolog Charliz Spirmanning fikriga ko'ra intellekt umumiylar bil omildan iborat bo'lib , uni odamlar o'rtasida o'lchash va solishtirish mumkin. Spirman turli xil intellektual qobiliyatlar o'rtasidagi umumiylarlarga e'tibor qaratadi va har birining o'ziga xosligini ta'kidlaydi. Zamonaviy psixologiya rivojlanishdan ancha oldin Aristotel kabi antik faylasuflar ham huddi shunday fikrda edilar. Boshqa psixologlarning fikriga ko'ra, intellekt alohida qobiliyatlar to'plamidir. 1940-yillarda Raymond Kattell umumiylar intellektni ikkita komponentga ajratuvchi intellekt nazariyasini taklif qildi. Bular kristallangan intellekt va suyuq intellekt. Kristallangan intellekt olingan bilim va uni qayta tiklash qobiliyati sifatida tavsiflanadi. Ma'lumotlarni o'rganganimizda eslab qolib, uni qayta esga tushirishimiz kristallangan intellektidir. Darsda ko'rib chiqilgan ma'lumotlarni o'zlashtiranimizdan so'ng, imtihonlarda doimo kristallangan intellektidan foydalanamiz. Suyuq intellekt murakkab munosabatlarni ko'rish va muammolarni hal qilish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Yo'l qurilishi tufayli notanish yo'lga o'tib, uyga yo'lni navigatsiya qilishda suyuq intellektidan faydalanamiz. Suyuq intellekt kundalik hayotimizdagi murakkab, mavhum muammolarni hal qilishga yordam beradi, kristallangan intellekt esa aniq, oddiy muammolarni yengishga yordam beradi.

Boshqa nazariyotchilar va psixologlar intellektni ko'proq amaliy jihatdan aniqlash kerak deb hisoblashadi. Masalan, qanday xatti-harakatlar oldinga intilishga yordam beradi? Qaysi qobiliyatlar muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi? Robert Sternberg intellektning yana bir nazariyasini ishlab chiqdi. Uni intellektning triarxik nazariyasi deb nomladi, chunki, u intellektni uch qismdan iborat deb hisoblaydi.



Sternberg nazariyasiga ko'ra intellektning uch turi: Analitik, Ijodiy, Amaliy turlari mavjud.

Sternberg tomonidan takllif qilingan amaliy intellekt tajribaga asoslangan bilimlarni qo'llash orqali kundalik hayotdagi muammolarga yechim topishni anglatadi. Ushbu turdag'i intellekt daraja boshqalardan alohida farqlanadi. Amaliy intellekt bo'yicha yuqori ball olgan shaxslar ijodiy va analitik bo'yicha ballga ega bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin.

Analitik intellekt akademik muammolarni hal qilish va hisoblash bilan bog'liq. Sternbergning ta'kidlashicha, analitik intellekt tahlil qilish, baholash, hukm qilish, qiyoslash, taqqoslash qobiliyati bilan namoyon bo'ladi. Masalan, badiiy asar o'qiyotganda, odatda, asar qahramonlarining obrazlarini solishtirish yoki asar mazmunini tahlil qilish kerak. O'r ganilayotgan ma'lumot bo'yicha tushunchani rivojlantirishda analitik intellektdan foydalaniladi. Murakkab matematik masalani yechishda analitik intellektning masalaning turli tomonlarini tahlil qilish uchun qo'llaymiz va keyin uni bo'lim bo'yicha yechamiz.

Ijodiy intellekt muammo yoki masalaning yechimini yaratish yoki tasavvur qilish bilan ajralib turadi. Bu o'z navbatida ijodkorlik demakdir. Bu ijodkorlik kutilmagan muammoga yangi yechim topish bilan tavsiflanadi. Multi intellekt nazariyasi Garvard psixologi va Erik Eriksonning talabasi Xovard Gardner tomonidan ishlab chiqilgan. Gardner o'ttiz yildan ortiq vaqt mobaynida o'z nazariyasini takomillashtirdi. Uning nazariyasiga ko'ra, har bir kishi kamida sakkizta

**Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities
Hosted online from Plano, Texas, USA.**

Date: 1st December, 2023


ISSN: 2835-3196

Website: econferenceseries.com

intellegentlikka ega. Ushbu sakkizta intellegentlik turlari orasida odatda ba'zilari ustunlik qiladi va boshqalari sustlashadi. Quyidagi jadvalda intellegentlikning har bir turi tasvirlangan.

Intellegentlik turlari	Xususiyati	Karyerasi
Lingvistik intellegentlik	Tilning turli funksiyalarini, so'zlarning turli tovushlari va ma'nolarini idrok etadi.Bir nechta tillarni osongina o'rganishi mumkin.	Jurnalist,yozuvchi,shoir,o'qituvchi
Mantiqiy-matematik intellegentlik	Raqamli belgilarni o'qiy olish va mantiqiydan foydalanish qobiliyati kuchli.	Olim, matematik.
Musiqy intellegentlik	Ritm, balandlik va ohangni tushunadi, bir nechta asboblarni chalishi mumkun.	Bastakor, vokalchi, qo'shiqchi.
Tana-kinestetik intellegentlik	Tananing harakatlarini boshqarish va turli jismoniy vazifalarni bajarish uchun tanadan foydalana olish qobiliyati.	Raqqosa, sportchi, sport murabbiyi, yoga o'qituvchisi.
Fazoviy intellegentlik	Obyektlar o'rtasidagi munosabatlarni va ularning fazoda qanday harakat qilishini idrok etish qobiliyati.	Xoreograf, haykaltarosh, me'mor, dengizchi, aviator.
Shaxslararo intellegentlik	Boshqalarning turli xil hissiy holatlarini tushunish qobiliyati.	Maslahatchi,
Intrapersonal intellegentlik	Shaxsiy his-tuyg'ular va motivatsiyalarga kirish va ulardan shaxsiy maqsadlarga erishish uchun foydalananish qobiliyati.	Vaqt o'tishi bilan muvafaqiyatning asosiy komponenti.
Tabiatshunoslik Intellegentlik	Tabiiy dunyoni qadrlash va undagi turlar bilan o'zaro munosabatda bo'lish qobiliyati.	Biolog, ekolog.

Gardner nazariyasi qo'shimcha tadqiqodlarga muhtoj. Gardnerning shaxslararo va ichki intellektlari ko'pincha bitta turga ya'ni emotsiunal intellektga birlashtiriladi. Emotsional intellekt o'zingiz va boshqalarning his-tuyg'ularini tushunish, hamdardlik ko'rsatish, ijtimoiy munosabatlar va signallarni tushunish, o'z his-tuyg'ularini tartibga solish va vaziyatga mos ravishda javob berish qobiliyatini o'z





ichiga oladi. Yuqori emotsional intellektga ega odamlar odatda yaxshi rivojlangan ijtimoiy ko'nikmalarga ega. Ba'zi olimlar emotsional intellekt IQ dan ko'ra muhimroq deb hisoblashadi. Masalan, "Emotsioanl intellekt nima uchun IQ dan muhimroq" asarining muallifi Emotsional intellekt an'anaviy intellektga qaraganda muvaqqiyatning yaxshiroq vositachisi ekanligini ta'kidlaydi.

Biroq, emotsional intellekt keng muhokama qilinmoqda. Tadqiqotchilar uning ta'rifi va tafsiflanishdagi nomutonosibliklarga duch kelmoqda. Chunki, emotsional intellektni o'lchash va o'rganish mobaynida olingan natijalar shubha ostiga olinmoqda. Buning sababi, turli madaniyatlarda emotsional intellekt turli ma'no va mazmunga ega bo'lishi mumkin.

Kreativlik-bu yangi g'oyalar, yechimlar va imkoniyatlarni yaratish yoki kashf etish qobiliyati. Kreativlik kuchli bo'lgan odamlar ko'pincha biror narsa haqida kuchli bilimga ega bo'lib, yangi yechimlarni va boshqa mutaxasislarning fikrini o'rganib chiqadi, tavakkal qiladi. Kreativlik ko'pincha san'at bilan bog'liq bo'lsa-da, aslida u ko'plab sohalar bo'yicha odamlarni yangi narsalarini kashf etishga undaydigan intellektning muhim shaklidir. Kreativlikni hayotning har bir sohasida, yashash joyimizni bezashdan tortib, hujayra tuzilishini tushunishning yangi usuligacha topish mumkin.

Kreativlik ko'pincha odamning turli xil fikrlash qobiliyatining funktsiyasi sifatida baholanadi. Divergent fikrlashni "qutidan tashqarida" fikrlash deb ham ataladi. Chunki, u shaxsga berilgan yagona muammoning bir nechta yechimlarini topishga imkon beradi. Bundan farqli o'laroq konvergent fikrlash muammoga to'g'ri yoki aniq javob yoki yechimini taqdim etish qobiliyatini tavsiflaydi.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. P.I. Ivanov, M.E. Zufarova. Umumiy psixologiya. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiati nashriyoti. 2014-yil.
2. F.I. Xaydarov, N.I. Xalilova. Umumiy psixologiya. Toshkent, 2019-yil.
3. <https://oertx.highered.texas.gov/courseware/lesson/2119/students/?section=3>.
4. <https://brilliantio.com/what-is-the-difference-between-creativity-and-intelligence/>.